

VOYAGA YETMAGAN O'QUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA TURLI ZO'RAVONLIKNI, XULQIDAGI SALBIY O'ZGARISHLARNI OLDINI OLISH BO'YICHA TAVSIYASINING AHAMIYATI.

R.Allaberganova

*Bog'ot tuman xalq ta'limi bo'limi
Bolalarni ijtimoiy-psixologik
qo'llab-quvvatlash markazi
psixolog-metodisti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada voyaga yetmagan o'quvchi yoshlar o'rtasida turli zo'ravonlikni, xulqidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan ota-onalar uchun metodik tavsiya juda muhim ahamiyatga egaligi borasida ilmiy amaliy tavsiyalar keltirilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *O'quvchi, ota-ona, psixolog, xavf, maktab, konstruktiv muzokara, yoqtirmaslik, zo'ravonlik.*

Аннотация: *В данной статье приведены научно-практические рекомендации по профилактике различного насилия, негативных изменений в поведении среди несовершеннолетней учащейся молодежи, разработанные методические рекомендации для родителей, имеющие первостепенное значение.*

Ключевые слова: *Ученик, родитель, психолог, риск, школа, конструктивный диалог, неприязнь, насилие.*

Annotation: *This article provides scientific and practical recommendations for the prevention of various violence, negative changes in behavior among underage students, and developed methodological recommendations for parents of paramount importance.*

Keywords: *pupil, parent, psychologist, risk, school, constructive dialogue, hostility, violence.*

Voyaga yetmagan o'quvchi yoshlar o'rtasida turli zo'ravonlikni, xulqidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan ota-onalar uchun metodik tavsiya juda muhim ahamiyatga ega chunki ushbu masala davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan bo'lib bunga misol qilib, Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma'qullangan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunni keltirib o'tishimiz mumkin[1].

Zo'ravonlikka moyillik kishi hayotining ilk bosqichlarida, erta bolalikda shakllanadi va bolaning (bo'lajak jinoyatchining) o'z oilasida egallagan o'rni natijasi hisoblanadi. Bu o'rinning mohiyati uni ota-onasi yoqtirmasligi, ba'zan to'g'ridan to'g'ri undan yuz o'girishidan iborat bo'ladi. Bolaning o'z onasi rad

etuvchi, yoqtirmovchi rolida chiqsa, bunday vaziyat o'ta fojiali bo'ladi. «Yoqtirmaslik» atamasi onaning o'z bolasiga shunday munosabatini anglatadiki, farzandini avvalambor tabiiy – ovqatga, issiqlikka, tozalikka ehtiyojlarini o'z vaqtida va aniq qondirishga qodir emas, yoki istamaydi, yohud qilolmaydi. Buning natijasida bola surunkali tanqislik, o'z ehtiyojlarining doimiy qondirilmashligi vaziyatida bo'lib qoladi. Bu holat uni doimiy ravishda boshqa odamga (onasiga) qaram qilib qo'yadi, chunki faqat ugina ushbu ehtiyojlarni qondirishi mumkin. Bunday ehtiyoj saqlanar ekan qaramlik ham saqlanib qoladi.

Voyaga yetmagan o'quvchi yoshlar o'rtasida turli zo'ravonlikni, xulqidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olish bo'yicha ota-onalar uchun quyidagilar rioya qilish kerak:

1. Konstruktiv muzokaralarni olib boring (faqat shu holat muhokama qilinadi, ikkala tomonning manfaatlari hisobga olinadi);

2. Tuyg'ularingizni tinch sharoitda ifoda eting;

3. Yig'ilgan muammolarni muntazam ravishda muhokama qiling;



Xavf omillarini ko'rib chiqqandan so'ng, nikoh barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ta'kidlab o'tsak:

- Agar siz munozaradan rozi bo'lmasangiz, o'z nuqtai nazingizni bildiring va zarur dalillar bilan isbotlang.

- Yaxshi oila quyidagilar bilan tavsiflanadi: bir-biringizni hurmat qilish; halollik; birga bo'lish istagi, manfaatlar va hayotiy qadriyatlarining o'xshashligi. Sog'lom oilada har bir inson barcha oila a'zolari bilan bog'liq, umumiy maqsadlar va rejalar mavjud, oila a'zolari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir-biriga ishonadi, birgalikda bo'sh vaqtlarini o'tkazadilar.

Notinch oilada buning aksi - psixologik jihatdan yetuk bo'lmagan insonlar munosabatlarni o'rnatishni bilishmaydi, buning ketidan zo'ravonlik paydo bo'ladi, bir-birlariga haddan tashqari talablarda munosabatlarda muammolar paydo bo'ladi, bir-biriga nisbatan mas'uliyatsizlik namoyon bo'ladi.

Psixologning vazifasi – ota-ona va farzandlarining kelajak farovonligi uchun javobgarlikni, majburiyatlarni o'z zimmasiga olish kerakligi

tushunchasini yetkazib berish. Barqaror munosabatlarni o'tkinchi ehtiros va hudbin munosabat asosida qurib bo'lmasligini ham ta'kidlab o'tishi kerak.

Ota-onalarni maktab yig'ilishlariga jalb qilib, maktabda zo'ravonlik qilinishiga yo'l qo'ymaslik masalasini alohida ko'rib chiqilishiga e'tibor qaratilishi lozim, chunki bolalarning xulq-atvori asosan oilaviy tarbiya va munosabatlar yig'indisi asosida shakllanadi.

Ota-onalar o'z farzandlari yoki, boshqa o'quvchiga nisbatan o'smirlarning, ta'lim ishchilarining yoki o'qituvchilar tomonidan o'tkazilayotgan bosim va zo'ravonlik holatini payqagan taqdirlarida ular to'g'risida ta'lim xodimlariga, sinf o'qituvchisiga, mas'ul direktor o'rinbosari yoki maktab boshlig'iga telefon orqali yoxud elektron pochta orqali shaxsan etkazishi mumkin. Shuningdek, ular ta'lim muassasasi rahbarining nomiga ariza yuborishlari, oliy ta'lim organlari, huquqni muhofaza qilish idoralari va inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlariga murojaat qilishlari mumkin.

Ota-onalar bolaning xatti-harakatlari, u tomonidan sodir etilgan yoki unga nisbatan qilingan zo'ravonlik harakatlari va ularning oqibatlari, ta'lim muassasasi xodimlari tomonidan ko'rilgan choralar to'g'risida o'z vaqtida va to'liq ma'lumot olish huquqiga ega. Shu sababli, sinf rahbari, maktab ma'muriyati zo'ravonlikdan aziyat chekkan o'quvchining ota-onalariga ham, zo'ravonning ota-onalariga ham voqea to'g'risida xabar berishga majburdirlar. Biroq, ba'zi hollarda, voqea jiddiy oqibatlarga olib kelmasa, ta'lim muassasasi ota-onalarni jalb qilmasdan vaziyatni o'zi hal qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma'qullangan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun.

2. И.М. Хакимова Дувиант хулқ-атвор психологияси Ўқув қўлланма. Тошкент 2014.

3. Latipova U. TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – S. 193-195.

4. Юсуфбоевна ЛУ ЭНДОКРИН КАСАЛЛИКЛАРИНИНГ ШАКС ПСИКИКАСИГА ТА'СИРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATIONSALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – S. 804-806.